




O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

Biznes kayfiyati sharhi

2025 yil II chorak



Biznes kayfiyati sharhi – O'zbekiston Respublikasi hududlaridagi iqtisodiy faollik, tadbirkorlik muhiti va bandlik bilan bog'liq tendensiyalarini muqobil ko'rsatkichlar orqali o'zida ifoda etadi.



Ushbu sharh joriy yilning II choragida mamlakatda shakllangan biznes kayfiyatini o'rganish maqsadida iyul oyida hududlarda o'tkazilgan so'rov natijalari asosida tayyorlandi. So'rovda mamlakatning barcha hududlarida iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yurituvchi ikki mingdan ortiq tadbirkorlar ijtimoiy tarmoqlar orqali ishtirok etdi. Bunda, tadbirkorlik faoliyati yo'nalishlarini kengroq qamrab olish va reprezentativlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

So'rvonoma hududlardagi iqtisodiy faollik, tadbirkorlik sharoitlari va muhitiga ta'sir qiluvchi omillar, energiya iste'moli hajmi o'zgarishi, yuk tashish ko'rsatkichlari, sohalarda ishchi kuchiga bo'lgan talab, bandlik darajasi, savdo hajmi hamda soha istiqboli bo'yicha joriy holat va kutilmalarni aniqlash bo'yicha savollardan tashkil topgan.

Har bir savolga bir nechta javob variantlari biriktirilgan bo'lib, qatnashuvchilar tomonidan bir paytning o'zida ulardan bir yoki bir nechta tanlanishi mumkin. Natijalar har bir javob variantini tanlaganlar sonini umumiy javoblar soniga bo'lish va alohida guruhlar bo'yicha vaznli koeffitsiyentlar qo'llash orqali umumlashtirilgan. Umumlashtirilgan ma'lumotlar taqsimot qoidalari asosida tahlil qilinib, o'rtacha ko'rsatkichlar bilan taqqoslangan.

Tahlillar mamlakatning turli hududlaridagi iqtisodiy sharoitlarni qiyosiy taqqoslash va ularning o'zgarish tendensiyalarini sifat jihatidan o'rganish imkonini beradi.

Umumiylar

Tadbirkorlik muhit

2025 yilning II choragi yakunlari bo'yicha tadbirkorlik muhitini o'rganish natijalari respublikadagi biznes faoliyatida ijobiy tendensiya davom etayotganini ko'rsatmoqda. So'rovnoma ishtirok etgan tadbirkorlarning 61 foizi joriy sharoitlarni 2025 yilning I choragiga nisbatan yaxshilangan deb baholagan. Ushbu ko'rsatkich so'nggi ikki yil davomida o'rtacha 50 foizdan yuqori darajada saqlanib kelmoqda va buni tadbirkorlarning iqtisodiy islohotlarning barqarorligiga bo'lgan ishonchi bilan izohlash mumkin.

Respondentlar biznes muhitidagi ijobiy o'zgarishlarni, avvalo, yo'l infratuzilmasi, energiya ta'minoti yaxshilangani va biznesga ma'muriy aralashishlar kamaygani, raqobat muhiti va bank xizmatlari sifati yaxshilangani bilan izohlagan. Shu bilan birga, soliq ma'murchiligi, kredit olish imkoniyatlari va litsenziyalash jarayonlari bo'yicha holat o'tgan chorak darajasida saqlanib qolgan.

Iqtisodiy faollik

Mazkur chorakda energiya iste'molidan boshqa barcha iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari o'tgan chorakka nisbatan o'sishda davom etdi. Ishlab chiqarish hajmi va buyurtmalar soni ortgani nisbatan ko'proq qayd etildi. Ayniqsa Farg'ona, Namangan, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida yuqori sur'atda namoyon bo'ldi. Ushbu o'sishga maishiy xizmatlar, turizm, hunarmandchilik, aloqa va axborot hamda tibbiyot tarmoqlari asosiy hissa qo'shdi.

Korxonalarning qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lган talabi ham yaxshilandi. I chorakda 45 foiz tadbirkorlik subyektlari ishchi kuchiga talabi ortganini bildirgan bo'lsa, II chorakda ushbu ko'rsatkich 48 foizni tashkil qildi. Bunda Farg'ona, Qashqadaryo va Samarcand viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida sezilarli o'sish kuzatildi. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi Farg'ona, Samarcand, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida sezilarli oshgan bo'lsa, Xorazm, Qashqadaryo, Andijon va Toshkent viloyatlarida pasaydi. Tadbirkorlar tomonidan energiya ta'midotidagi uzilishlar, aylanma mablag'larning kamligi, soliq tizimidagi murakkabliklar va ijara xarajatlarining yuqoriligi to'liq quvvatda faoliyat yuritmaslikning asosiy sabablari sifatida qayd etildi.

Bandlik

Bandlik bozorida II chorak davomida o'rtacha o'sish qayd etilib, qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab, asosan, Farg'ona, Namangan, Toshkent viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida oshgan. Kelgusi chorakda umumiyl talab o'sishining barqaror saqlanishi kutilayotgan bo'lib, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyatlarida mehnat bozori yanada faollashishi taxmin qilinmoqda. Maishiy xizmat, aloqa va axborot, qishloq xo'jaligi va turizm sohalarida qo'shimcha ishchi kuchiga talab boshqa sohalarga nisbatan yuqori shakllanishi kutilmoqda.

Moliyaviy holat

Tadbirkorlar orasida so'nggi uch oy davomida qarz majburiyatları oshganini bildirganlar ulushi ortgan. Shu bilan birga, qo'shimcha kreditlarga bo'lgan talab borasidagi kutilmalarda ijobiy tendensiyalar saqlanib qolmoqda. Qashqadaryo, Namangan va Toshkent viloyatlarida kelgusi chorakda kredit resurslariga ehtiyoj sezilarli oshishi kutilmoqda. Turizm, qurilish va hunarmandchilik sohalaridagi tadbirkorlar tomonidan kredit mablag'lariga nisbatan yuqori qiziqish bildirmoqda.

Istiqbollar

O'rta muddatli istiqbollarda, tadbirkorlarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga bo'lgan ishonchi ijobiy saqlanmoqda. 2025 yilning I choragidan buyon ijobiylik darajasi sezilarli oshib, respondentlarning 66 foizi kelgusi davrda makroiqtisodiy sharoit yaxshilanishiga ishonch bildirgan.



Toshkent shahri, Toshkent viloyati

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 2025 yilning II choragida respondentlarning 51 foizi biznes shart-sharoitlarini yaxshilangan deb baholadi. Ushbu ko'rsatkich 2025 yilning I choragiga nisbatan 5 foiz bandga oshdi. Ijobiy baholar, avvalo, bank xizmatlarining sifati oshib, kredit olish imkoniyatlari kengaygani bilan izohlandi.


Shu bilan birga, ma'muriy aralashuvlar, monopollashuv darajasi, soliq ma'murchiligi hamda litsenziya-guvohnoma olish tartiblarida sezilarli o'zgarish kuzatilmagani ta'kidlandi. Gaz va elektr energiyasi ta'minoti bo'yicha ijobiy baholar ketma-ket uch chorak davomidagi pasayishdan so'ng yaxshilanish qayd etdi. Yo'l infratuzilmasi yaxshilanishini sezgan respondentlar ulushi 8 foiz bandga oshdi. Mazkur dinamika, ayniqlsa, ta'lim, qishloq xo'jaligi, qurilish va ishlab chiqarish tarmoqlarida namoyon bo'ldi.

Kredit mablag'larini olish masalasida ijobiy muhit saqlanib qoldi. So'rovda qatnashgan tadbirkorlarning 56 foizi kredit olish shartlari yanada soddalashganini qayd etdi. Yoqilg'i va energiya iste'moli o'sishi sur'atida esa sekinlashish kuzatildi. Shunday bo'lsa-da, energiya sarfi qishloq xo'jaligi, etkazib berish, savdo va umumiy ovqatlanish sohalarida yuqori shakllandi.


Yuk tashish hajmi o'rtacha hisobda 7 foiz bandga oshdi va ayniqlsa qishloq xo'jaligi, maishiy xizmat va etkazib berish sohalari vakillari tashish hajmining sezilarli oshganini bildirishdi. Shuningdek, maishiy xizmat, etkazib berish, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish tarmoqlarida qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab o'sish sur'atining tezlashgani qayd etildi.

Shu bilan birga, II chorakda buyurtmalar hajmi bo'yicha qishloq xo'jaligi, turizm, maishiy xizmat va axborot texnologiyalari sohalarida yuqori o'sish kuzatildi.


1-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyatini o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



2-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



3-rasm. Iqtisodiy faoliylik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Toshkent shahri, Toshkent viloyati

O'tgan chorakdagisi pasayishdan so'ng, kredit va qarz to'lovlari o'sish sur'ati II chorakda tezlashdi. Tadbirkorlar orasida kredit majburiyatları hajmi oshganini bildirganlar ulushi 26 foizdan 36 foizgacha oshdi.

Ikkinci chorakda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish kamaydi. Yuqori quvvatda ishlagan korxonalar ulushi 52 foizdan 43 foizgacha tushdi. Bu pasayish ayniqsa aloqa-axborotlashdirish, kommunal xizmatlar, ta'lif va qurilish sohalarida sezildi.


To'liq quvvatda ishlay olmayotgan subyektlar gaz va elektr ta'minotidagi uzilishlar, yuqori ijara xarajatlari, avtomobil yonilg'isining qimmatlashuvi, ma'muriy aralashuvlar kabi omillarni asosiy to'siqlar sifatida baholadilar.

Respondentlarning yarmidan ko'pi yoqilg'i va energiya iste'moli hajmi ortishini kutayotgan bo'lsa, buyurtmalar hajmi hamda qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talabi bo'yicha kutilmalar biroz sekinlashgan. Qishloq xo'jaligi, maishiy xizmat, tibbiyot va turizm sohalarida faoliyning yuqori o'sishi kutilmoqda.


Shu bilan birga, qo'shimcha kredit resurslariga ehtiyoj sezayotgan respondentlar ulushi avvalgi chorakka nisbatan biroz oshgan. Kreditga bo'lgan talab, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, maishiy xizmat, qurilish va etkazib berish sohalarida oshishi kutilmoqda.

Tadbirkorlarning 57 foizi kelgusi uch yil ichida mamlakatimiz iqtisodiyoti va biznes muhitining yaxshilanishiga ishonch bildirgan.


4-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



5-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



6-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Buxoro, Navoiy, Samarqand

2025 yilning ikkinchi choragida Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarida o'tkazilgan so'rov natijalarini tadbirkorlik muhitidagi ijobjiy tendensiyalar barqaror saqlanayotganini ko'rsatdi. Respondentlarning 61 foizi biznes shart-sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi. Ushbu ijobjiy o'zgarishlar maishiy xizmatlar, tibbiyot, savdo va turizm sohalarida sezilarli bo'lganligi qayd etildi.

Tadbirkorlar, bank xizmatlari sifati va kredit olish imkoniyatlari yaxshilangani bilan birga, raqobat muhiti hamda litsenziya olish jarayonlaridagi ijobjiy o'zgarishlarni asosiy omillar sifatida belgiladilar. Shunga qaramay, bojxona tariflari, monopollashuv darajasi va soliq ma'murchiligi sohalarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagani ta'kidlandi.


Raqobat muhiti oldingi chorakka nisbatan yaxshilanib, respondentlarning 55 foizi, ayniqsa, turizm, savdo, ta'lif va qurilish sohalarida ijobjiy o'zgarishlarni qayd etdi.

Gaz va elektr ta'minotida ijobjiy o'zgarishlarni qayd etgan tadbirkorlar ulushi 30 foizdan 38 foizgacha oshdi. Shuningdek, 52 foiz respondentlar tomonidan yo'l infratuzilmasida ijobjiy o'zgarishlar bo'lgani ta'kidlandi. Ma'muriy aralashuvlar kamayganini ma'lum qilganlar ulushi ham biroz ko'paydi.


Yoqilg'i va energiya iste'moli o'sganligi ta'kidlandi. Bunda tadbirkorlarning qariyb 55 foizi yoqilg'i va energiya iste'moli hajmining oshganini bildirdilar. Eng yuqori o'sish qurilish, hunarmandchilik hamda savdo sohalari hissasiga to'g'ri keldi. Buyurtmalar hajmida ham ijobjiy dinamika saqlanib, ushbu chorakda, asosan, turizm, tibbiyot va savdo sohalari hisobiga ta'minlandi.

Qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab turizm, hunarmandchilik, etkazib berish va qishloq xo'jaligi sohalarida oshgan bo'lsa, aloqa hamda maishiy xizmatlarda biroz pasaydi.


7-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyatini o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



8-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



9-rasm. Iqtisodiy faoliyot ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Buxoro, Navoiy, Samarqand

Tadbirkorlarning 51 foizi kreditlar va ular bo'yicha to'lovlar hajmi oshganini bildirishdi. Bu o'sish, avvalo, hunarmandchilik, aloqa, umumiyligida ovqatlanish hamda kommunal xizmatlar tarmoqlarida yaqqol namoyon bo'ldi.

Hisobot davrida ishlab chiqarish quvvatlari foydalanishning ijobiy dinamikasi saqlanib qoldi. O'rta va nisbatan yuqori quvvatlarda ishlayotgan respondentlar ulushi biroz ortdi. Yuqori quvvatdagi faoliyat asosan maishiy xizmatlar, hunarmandchilik, savdo va tibbiyot xizmatlarida qayd etildi. Aksincha, etkazib berish, turizm va qurilish tarmoqlarida quvvatdan foydalanish sur'ati sekinlashdi.


Tadbirkorlar to'liq quvvatda ishlamaslikning asosiy sabablari sifatida soliq tizimidagi qiyinchiliklar, ijara xarajatlarining yuqoriligi, energiya ta'minotidagi uzilishlar hamda talabning etarli darajada emasligini ko'rsatdilar.

Turizm, maishiy xizmatlar va ta'limga yo'nalishlarida energiya iste'molining yuqori o'sishi kutilmoqda. Qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab bo'yicha ijobiy kutilmalar ham o'sishda davom etdi. Qishloq xo'jaligi va turizm sohalarida qo'shimcha ishchi kuchiga ko'proq talab shakllanmoqda. Ushbu sohalarda, buyurtmalar hajmining ko'payishi bo'yicha kutilmalar ham barqaror saqlanib qoldi.


Respondentlarning 53 foizi kelgusi chorakda kredit mablag'lariga bo'lgan ehtiyoj hozirgi darajadan yuqori bo'lishini kutmoqda. Bu ehtiyoj, ayniqsa, turizm, savdo, qurilish va hunarmandchilik sektorlarida sezilarli bo'lishi mumkin.

Tadbirkorlarning 64 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhitining yanada yaxshilanishiga ishonch bildirgan.


10-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



11-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



12-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Andijon, Namangan, Farg'ona

2025 yilning ikkinchi choragida Farg'ona vodiysida tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi bo'yicha sezilarli o'zgarish kuzatilib, ijobiy baho bergan respondentlar ulushi 57 foizdan 70 foizga etdi. Tadbirkorlar ushbu ijobiylikni asosan, bank xizmatlarining sifati oshgani va kredit resurslarini olish kengaygani, raqobat muhitining yaxshilanayotgani, shuningdek, ma'muriy aralashuvlar kamaygani bilan izohlashdi. Bojxona tariflari, soliq ma'murchiligi, gaz va elektr ta'minotida ijobiy baholar nisbatan kamroq darajada shakllandi.


Gaz va elektr bilan ta'minlanishda ijobiy o'sishni sezgan tadbirkorlar ulushi chorak davomida 12 foiz bandga ko'paydi. Bu, asosan, kommunal xizmat, ta'lim, hunarmandchilik va qurilish sohalarida faoliyat yuritayotganlar tomonidan ta'kidlandi.

Shuningdek, yo'l infratuzilmasi va monopolashuv darajasi bo'yicha vaziyat yaxshilanganini qayd etgan respondentlar ulushi 18 foiz bandga oshdi.


Yoqilg'i-energiya iste'moli o'sishi 2 foiz bandga qisqarganiga qaramasdan, 57 foiz tadbirkorlar energiya iste'mollari oshganini ma'lum qildi. O'sish sur'atining biroz sekinlashishi moliya, hunarmandchilik, aloqa va umumiy ovqatlanish tarmoqlarida qayd etildi.

Yuk tashish hajmi o'ttacha hisobda ortib, asosiy o'sish maishiy xizmat, qishloq xo'jaligi, kommunal xizmat va hunarmandchilik sohalari hissasiga to'g'ri keldi. Mehnat bozorida ham ijobiy faoliik saqlanib, qo'shimcha ishchi kuchiga talab qishloq xo'jaligi, maishiy xizmat, hunarmandchilik va ta'lim tarmoqlarida ko'paydi. Biroq moliya, turizm va savdo sohalarida bu ko'rsatkich biroz sekinlashdi. Kreditlar va ular bo'yicha to'lovlar hajmi 9 foiz bandga kamaydi, asosiy pasayish moliyaviy, kommunal va maishiy xizmatlar, umumiy ovqatlanish va qurilish vakillarida kuzatildi.


13-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



14-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



15-rasm. Iqtisodiy faoliik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Andijon, Namangan, Farg'ona

Mazkur hududlarda yuqori yoki o'rta quvvatlarda ishlayotgan korxonalar ulushi 5 foiz bandga ko'paygani qayd etildi. Nisbatan yuqori quvvatda faoliyatni davom ettirgan sohalarga communal va maishiy xizmatlar, turizm, hunarmandchilik va aloqa xizmatlaridir.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan nisbatan o'rta yoki past darajada foydalanib kelayotgan korxonalar aylanma mablag'lar va ichki talabning etarli emasligi, gaz va elektr ta'minotidagi uzilishlar hamda avtomobil yonilg'isi narxlarining oshib borishi kabi muammolarni asosiy omillar sifatida ta'kidladilar.

Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, umuman olganda, ijobiy shakllandi. Yoqilg'i va energiya iste'moli jihatidan respondentlarning 65 foizi talabning oshishini kutayotganini bildirdi. Yuqori o'sishni qurilish, maishiy xizmatlar, turizm va ta'lif sohalaridagi tadbirkorlar kutmoqdalar.


Yuk tashish hajmlari bo'yicha prognozlar ham ijobiyligicha qolmoqda. Xususan, maishiy xizmat, tibbiyot, turizm va communal xizmat tarmoqlarida yuqoriq o'sish kutilmoqda.

Mehnat bozoriga oid kutilmalarda qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyoj maishiy xizmat, aloqa, ishlab chiqarish va tibbiyot sohalarida yuqori baholanmoqda.


Shu bilan birga, 48 foiz respondentlar kelgusi chorakda kredit resurslariga bo'lgan talab oshishini kutayotganini ma'lum qildi. Kreditlarga qiziqish, birinchi navbatda, turizm, savdo, maishiy xizmat hamda tibbiyot tarmoqlarida ortishi ehtimoli mavjud.

O'rta muddatli istiqbollar sezilarli yaxshilangan bo'lib, tadbirkorlarning 76 foizi uch yil ichida milliy iqtisodiyot va biznes muhitining yaxshilanishiga ishonch bildirmoqda.


16-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



17-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



18-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Qashqadaryo, Surxondaryo

2025 yilning ikkinchi choragida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tadbirkorlik kayfiyati biroz yaxshilandi va biznes sharoitlarini ijobjiy baholagan respondentlar ulushi 61 foizdan 64 foizgacha oshdi. Tashish xizmatlari, maishiy xizmatlar, qurilish, fan-ta'lismi va turizm tarmoqlarida biznes muhitining yaxshilanganini qayd etgan tadbirkorlar ulushi sezilarli ortgan bo'lsa, moliya sohasida bunday ijobjiy baholar qisqardi.


Ishbilarmonlarning qayd etishicha, bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlarining ortishi, shuningdek, litsenziya va guvohnomalarni olish tartibining soddalashishi tadbirkorlik faolligini rag'batlantirgan asosiy omillardan bo'ldi. Soliq ma'murchiligi hamda gaz, elektr ta'minoti borasida esa sezilarli ijobjiy o'zgarishlar kuzatilmadi.

Xususan, bank xizmatlari sifati bo'yicha ijobjiy o'zgarish qayd etgan respondentlar ulushi I chorakka nisbatan 66 foizdan 79 foizga, kredit olish imkoniyatlari bo'yicha 63 foizdan 74 foizga, litsenziya olish bo'yicha 52 foizdan 60 foizga ko'paydi.


Tashish xizmati, turizm, aloqa va axborot, fantalim, kafe-restoran sohalarida kredit olish imkoniyatlari yaxshilanganini ma'lum qilgan tadbirkorlar ulushi sezilarli oshdi. Gaz va elektr ta'minotining yomonlashganini esa maishiy xizmat, tibbiyot va hunarmandchilik sohasidagilar ko'proq qayd etdi.

Energiya resurslariga bo'lgan talab o'sishda davom etayotgani qayd etildi hamda turizm, maishiy xizmat, tashish va tibbiyot sohalarida yoqilg'i-energiya iste'molining oshgani kuzatildi. Shuningdek, qurilish sohasida ishlab chiqarish hajmining o'sishi, turizm va hunarmandchilik sohasida esa buyurtmalar hajmining ortishi kuzatilgan.


19-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



20-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



21-rasm. Iqtisodiy faoliy ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Qashqadaryo, Surxondaryo

Kreditlar va ular bo'yicha to'lovlар hajmida o'sish tendensiyasi davom etdi. Jumladan, 46 foiz tadbirkorlar qarz majburiyatları ortganini bildirdi. Asosiy o'sish qurilish va turizm tarmoqlariga to'g'ri keldi.


Ishlab chiqarish quvvatlari bo'yicha pasayuvchi dinamika kuzatildi. O'rta va nisbatan yuqori quvvatlarda ishlayotgan subyektlar ulushi 9 foiz bandga kamaydi. Bu, asosan, tashish, kafe-restoran, aloqa va axborot tarmoqlari hisobiga yuzaga keldi. Shu bilan birga, turizm va kommunal xizmat sohalaridagi korxonalar nisbatan yuqori quvvatlarda ishlagani kuzatildi. Respondentlar to'liq quvvatda ishlamasligiga asosiy omillar sifatida aylanma mablag'larning kamligi, soliq tizimidagi qiyinchiliklar, ijara xarajatlarining yuqoriligi hamda gaz-elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlarni qayd etdilar.

So'rov natijalariga ko'ra, tadbirkorlarning 58 foizi yoqilg'i va energiya iste'molining oshishini kutayotgan bo'lib, bunda asosan, kafe-restoran, tashish, qurilish va fan-ta'lim sohalari vakillari yuqori talab o'sishini kutmoqdalar. Mehnat bozorida ham faoliyk o'sishi kutilmoqda. Jumladan, fan-ta'lim, kafe-restoran, tashish, qishloq xo'jaligi va qurilish sohalarida qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyoj ortishi ta'kidlandi.


Buyurtmalar hajmi bo'yicha prognozlarda respondentlarning 55 foizi kelgusi chorakda ushbu ko'rsatkich o'sishini kutishmoqda. Ayniqsa, tashish xizmatlari, kafe-restoran, qishloq xo'jaligi va qurilish tarmoqlarida o'sish ehtimolini ta'kidlaganlar ulushi yuqori shakllandi. Kredit bozoridagi talab o'smoqda. Bunda, kredit resurslariga bo'lgan ehtiyoj oldingi chorak bilan solishtirganda 8 foiz bandga o'sishi kutilmoqda. Yuqori talab, asosan, umumiy ovqatlanish, fan-ta'lim va qurilish sohalari subyektlari tomonidan shakllanishi taxmin qilinmoqda.

Ushbu hududda tadbirkorlarning kayfiyatida ijobiy o'sish saqlanib, 73 foiz respondent kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirdi.


22-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



23-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



24-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Jizzax, Sirdaryo


2025 yilning II choragida so'rovda ishtirok etganlarning 63 foizi biznes yuritish shart-sharoitlari yaxshilanganini qayd etdi (2025 yil I chorakda - 54 foiz). Ijobiy dinamika, asosan, ishlab chiqarish, moliya, umumiy ovqatlanish, qurilish, tashish xizmati va maishiy xizmat tarmoqlari hissasiga to'g'ri keldi.

Tadbirkorlar bank xizmatlari, kredit olish imkoniyatlari, yo'l-transport infratuzilmasi va raqobat muhitini eng muhim ijobiy omillar sifatida ko'rsatdilar. Bojxona tariflari, monopolashayotgan bozorlar ulushi va soliq ma'murchiligi borasida esa ko'rsatkichlar o'tgan chorak darajasida qolib, sezilarli o'sish qayd etilmadi. Gaz-elektr ta'minotidagi yaxshilanishni hunarmandchilik, moliya va qurilish sohalari vakillari qayd etgan bo'lsa, kommunal xizmat, maishiy xizmat hamda aloqa va axborot sohalarida ushbu yo'nalishda qiyinchiliklar saqlanib turibdi.


Kredit olish imkoniyatlari bo'yicha ijobiy baholarning o'sishi kuzatildi va 60 foiz tadbirkorlar kredit olish imkoniyatlari yaxshilanganini bildirdi. Ushbu o'sish tashish, moliya, turizm va fan-ta'lim tarmoqlarida yuqoriq shakllandi. Buyurtmalar hajmi, asosan, moliya, qishloq xo'jaligi va umumiy ovqatlanish tarmoqlarida kengaydi. Yuk tashish hajmlari va ishlab chiqarish o'sishi sur'atlari ham avvalgi chorakka nisbatan tezlashdi.

Yoqilg'i-energiya iste'moli borasida tadbirkorlarning 51 foizi ijobiy o'zgarish qayd etdi. Ayniqsa, savdo, ishlab chiqarish va tibbiyot tarmoqlarida elektr energiyasi va yonilg'iga talab yuqori shakllangan.


25-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyatini o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



26-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar. respondentlar ulushi, foizda



27-rasm. Iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Jizzax, Sirdaryo

Kommunal hamda maishiy xizmatlar sektorlarida energiya iste'molining pasayishi qayd etildi.

Kreditlar hajmi va ular bo'yicha to'lovlar hajmini oshdi deb hisoblaganlar ulushi kamaydi. Bunda eng yuqori pasayish moliya, aloqa va axborot, fan-ta'lim, savdo tarmoqlarida kuzatildi. Korxonalarining 47 foizi o'rta va yuqori quvvatlarda ishlayotganini bildirgan va ushbu ko'rsatkich o'tgan chorakka nisbatan biroz yomonlashgan.


O'rta hamda yuqori quvvatlarda faoliyat yuritgan korxonalar, asosan, qurilish, turizm, moliya, tibbiyot va maishiy xizmat sektorlariga to'g'ri keldi. Quvvatlaridan to'liq foydalana olmagan tadbirkorlar esa, asosan, tashish, hunarmandchilik va ishlab chiqarish tarmoqlarida faoliyat yuritmoqda. Asosiy to'siqlar sifatida aylanma mablag'larning etarli emasligi, soliq tizimidagi qiyinchiliklar, energiya ta'minotidagi uzilishlar va talabning yuqori emasligi ko'rsatilgan.

Respondentlarning aksariyat qismi, xususan, tashish, ishlab chiqarish, turizm, savdo va qurilish vakillari — yoqilg'i hamda elektr energiyasiga bo'lgan talab sezilarli o'sishini kutmoqdalar. Mehnat bozorida ham yuqori faoliik saqlanmoqda, respondentlarning 54 foizi qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyoji oshishini kutmoqda. Bunda asosiy o'sish ishlab chiqarish, savdo, turizm va maishiy xizmat tarmoqlarida bo'lishi mumkin.


Buyurtmalar hajmi borasidagi kutilmalar biroz kamaygan bo'lsa-da, ijobiyigicha saqlanib qolmoqda. Ishlab chiqarish va turizm sohalarida buyurtmalar hajmi ortishi kutmoqda. Shuningdek, tadbirkorlarning 50 foizi kelgusi chorakda kredit resurslariga ehtiyoji o'sishini kutmoqda. Bu ehtiyoj ayniqsa moliya, tashish va ishlab chiqarish sohalarida qayd etildi.

Respondentlarning 64 foizi kelgusi uch yil mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirdi (o'tgan chorakda 59 foiz).


28-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



29-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



30-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Qoraqalpog'iston, Xorazm

2025 yilning II choragi yakunida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida tadbirkorlik muhitiga nisbatan ishonch I chorakka nisbatan biroz yomonlashdi. So'rovda qatnashgan tadbirkorlarning 57 foizi biznes yuritish sharoitlari yaxshilanganini qayd etdi (I chorakda 61 foiz). Shu bilan birga, fan-ta'limga umumiyligi ovqatlanish va tashish sohalarida biznes kayfiyatini yuqori saqlanib qoldi.

Biznes vakillari tomonidan bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti, shuningdek, litsenziya olish jarayonlarini asosiy ijobiy omillar sifatida qayd etildi. Bojxona tariflari, soliq ma'murchiligi, yo'llar infratuzilmasi kabi omillarda esa sezilarli yaxshilanish kuzatilmagani ta'kidlandi.


Tadbirkorlar o'tgan chorak bilan solishtirganda ma'muriy aralashuvlar, bozordagi monopolashuv darajasi hamda gaz va elektr ta'minotiga oid shart-sharoitlar yaxshilanganini ko'proq qayd etishdi. Xususan, kommunal xizmatlar, savdo, qurilish va fan-ta'limga sohalari vakillari ma'muriy aralashuvlar kamayganini ta'kidlagan bo'lsa, aloqa va axborot, moliya, savdo hamda turizm sohalarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar monopolashuv darajasining pasayganini bildirishdi.

Yoqilg'i-energiya ta'minotidagi o'zgarishlar bo'yicha ijobiy baholar oldingi chorakka nisbatan kamaydi. Bunda, tibbiyot, kommunal xizmatlar, qurilish va moliyaviy xizmatlar sohalarida ko'pchilik respondentlar ta'minot holatida sezilarli o'zgarish kuzatilmaganini ta'kidlashdi.


Qo'shimcha ishchi kuchiga talab va ishlab chiqarish hajmi biroz oshgani qayd etildi. Buyurtmalar hajmida ham o'sish kuzatilgan. Xususan, moliya, aloqa va axborot, maishiy xizmat hamda hunarmandchilik sohalarida faoliyat yurituvchi respondentlar buyurtmalar soni oshganini ko'proq ta'kidlashdi.

Turizm, aloqa va axborot, hunarmandchilik, fan-ta'limga tarmoqlarida kredit va qarz to'lovlarining yuqori oshgani ham kuzatildi.


31-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyatini o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



32-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



33-rasm. Iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Qoraqalpog'iston, Xorazm

Korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ko'satkichi yomonlashdi. Jumladan, 47 foiz tadbirkorlar o'rta va yuqori quvvatlarda ishlayotganini ma'lum qildi (I chorakda 51 foiz).

Quvvattan to'liq foydalana olmayotgan tadbirkorlar energiya ta'minotidagi uzilishlar, avtomobil yonilg'isi narxi oshgani, aylanma mablag'lar etishmasligi, soliq tizimidagi murakkabliklar hamda ijara xarajatlarining yuqoriligini ta'kidladilar.


Respondentlar buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmi oshishini kutishmoqda. Ayniqsa hunarmandchilik, turizm, maishiy xizmat, qurilish va savdo sohalarida o'sish sur'atlari yuqori bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, energiya iste'moli borasidagi ijobiy kutilmalar biroz pasayib, tashish xizmatlari, kommunal xizmatlar, moliya va qurilish tarmoqlarida talab sekinlashishi kutilmoqda.

Tashish, umumi ovqatlanish va tibbiyot sohalarida ishlab chiqarish hajmi ortishi bo'yicha kutilmalar shakllangan. Tadbirkorlarning yarmidan ko'pi buyurtmalar hajmining oshishini taxmin qilmoqda. Sohalar kesimida hunarmandchilik, turizm, maishiy xizmat, qurilish va savdoda eng ijobiy kutilmalar namoyon bo'immoqda.


Qo'shimcha kredit resurslariga talab, asosan, hunarmandchilik, turizm hamda maishiy xizmatlar sohalarida shakllanmoqda.

So'rovnoma qatnashgan biznes vakillarining 61 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirdi.

34-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



35-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



36-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda

